

# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> November, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

## KONSTITUTSIYA - INSON HUQUQLARI VA HUQUQIY KAFOLATLAR

Bozorov Abdimannon Abduroimovich

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti

"Qo'riqlashni muhandislik-texnik ta'minoti" kafedrasini o'qituvchilari kapitan

Shukurov Shoxrux Abdulazizovich

Katta Leytenant

### Annotatsiya:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida so'nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar Asosiy Qonunimizni yangicha anglash, uning mazmun-mohiyatini keng tafakkur etish va qoidalarini hayotimizda izchil tatbiq etishga yo'l ochib berdi hamda zarur shart-sharoitlar yaratdi.

**Kalit so'zlar:** qonun, Konstitutsiya, farovonlik, nizom, huquq, islohot.

### KIRISH

O'tgan qisqa davr mobaynida "xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak" degan asosiy tamoyilga tayangan holda odamlarning dardini eshitish, ular bilan ochiq muloqotda bo'lish, og'i rini yengil qilishga qaratilgan xalq bilan muloqotning yangicha tizimi joriy etildi. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan tashkil etilgan Prezidentning virtual va Xalq qabulxonalari xususida ana shunday fikr bildirish mumkin. Mazkur qabulxonalarga yiliga 1 milliondan ziyod murojaat kelib tushmoqda.

Xalq bilan muloqot qilishning yangi tizimi davlat idoralari va mansabdor shaxslarning jamiyat va fuqarolar bilan o'zaro munosabatlarini tubdan o'zgartirdi, ularning mas'uliyati va javobgarligini oshirdi. Rahbarlar o'z faoliyatini yangicha tashkil etmoqda va xalq turmush sharoitini o'zida his qilib, qarorlar qabul qilishda xalq bilan hisoblashmoqda.

### ASOSIY QISM

Mazkur ijobiy o'zgarishlar davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qilishi, davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'ul ekanligi haqidagi konstitutsiyaviy normaga tom ma'noda yangicha hayotiy



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> November, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

kuch bag‘ishlab kelmoqda.

Har kim bilim olish huquqiga ega.

**Bepul umumiy ta‘lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi.**

Maktab ishlari davlat nazoratidir.

(O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 41-modda)

So‘nggi yillarda fuqarolarning ta‘lim olishga bo‘lgan konstitutsiyaviy huquqlarini ta‘minlashga katta e‘tibor qaratilmoqda. Bu borada davlatimiz rahbarining bevosita tashabbusi bilan umumiy o‘rta ta‘lim sohasida 11 yillik ta‘lim tizimi joriy etildi. Yangicha mazmun va shakldagi Prezident hamda Ijod maktablari ish boshladi. Kasb-hunar ta‘limi takomillashtirildi. Ta‘lim muassasalari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va rivojlantirish, pedagoglarning maoshi va kasbiy malakasini oshirish, ish sharoitini yaxshilash bo‘yicha tarixiy qadamlar qo‘yildi.

Prezidentimiz tomonidan **yangi o‘zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi**, degan ezgug‘oya asosida Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydulla Xo‘jaev, Abdurauf Fitrat, Ibrat domla, Abdulla Qodiriy kabi millatparvarlarning maorif va ta‘lim sohasidagi ishlarini davom ettirish, mamlakatimizda Uchinchi Renesans poydevorini yaratish va milliy yuksalishni ta‘minlashning aniq chora-tadbirlari belgilanadi. Davlatimiz rahbari tomonidan mahal-liy davlat hokimiyati organlari oldiga zamonaviy ma‘no-mazmun, ilm-ma‘rifat, tarbiya bilan boyitilgan millat tarbiyasi o‘chog‘i bo‘lmish maktablarni tashkil etish va ta‘minlashning eng muhim ustuvor vazifa sifatida qo‘yilishi bevosita maktab ishlarini davlat nazoratida bo‘lishiga oid konstitutsiyaviy normani hayotga joriy etishda muhim qadam bo‘ladi.

Maktab ishi – millat tarbiyasi. Shu nuqtai nazardan davlatimiz rahbari tomonidan ta‘lim masalasi bilan shaxsan hokimlar shug‘ullanishi lozimligi belgilanganligi har bir hududda birinchi darajadagi mansabdor shaxs kelajak ishi

– ta‘lim-tarbiyani nafaqat davlat nazoratida, balki rag‘batida bo‘lishiga xizmat qilishiga qara-tilganligi bilan e‘tiborlidir.

Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to‘g‘riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar.

**Senzuraga yo‘l qo‘yilmaydi.**

(O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 67-modda)

Yangi O‘zbekistonda so‘z erkinligini ta‘minlash, ommaviy axborot vositalarini har tomonlama rivojlantirish, jurnalist va blogerlarning erkin faoliyat yuritishi va ijod qilishlari uchun zarur tashkiliy-huquqiy asoslarning yaratilganligi tom ma‘noda



# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> November, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

“to‘rtinchi hokimiyat”ning davlat va jamiyat hayotidagi o‘rni va nufuzini sezilarli ravishda oshirdi. Barchamiz o‘z hayotimizda bu o‘zgarishlarning guvohi bo‘lmoqdamiz. Binobarin, jamiyatdagi fikrlar xilma-xilligi va taraqqiyot ko‘p jihatdan so‘z erkinligi, ommaviy axborot vositalarining erkin faoliyat olib borishiga bog‘liq.

Konstitutsiyaning mazmun-mohiyatini maktablarda o‘quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqib, o‘qitishning innovatsion shakllaridan foydalangan holda o‘qitishni mutlaqo yangicha shaklda tashkil etish davr talabi hisoblanadi.

Shu ma‘noda davlatimiz rahbari tomonidan har bir soha va yo‘nalish, ta‘limning barcha bosqichlari uchun huquqiy madaniyatni yuksaltirishning ilmiy asoslangan dasturini amalga oshirish va bunda, avvalambor, Konstitutsiyani o‘rganishga jiddiy yondashish lozimligi, bu borada o‘quv rejalari va darsliklarni yaratish zarurligi haqidagi g‘oyalari muhimdir.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar Asosiy Qonunimizning asosiy maqsadi hisoblangan insonni oliy qadriyat sifatida qadr topishiga hayotiy kuch bag‘ishlamoqda. O‘z navbatida, Konstitutsiyamiz qoidalari bu islohotlarning mustahkam huquqiy asosi bo‘lib xizmat qilmoqda.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: Adolat, 2021.
2. “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13 apreldagi PQ-3666-sonli Qarori
3. Shavkat Mirziyoev 2022-yil 3 iyul kuni Qoraqalpog‘iston Jo‘qorg‘i Kengesida deputatlar, faxriy va faollar bilan o‘tkazgan uchrashuvidagi nutqidan
4. Inson Huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi Bosh Assambleyaning 1948-yil 10 dekabrda 217A (III)-sonli rezolyusiyasi bilan qabul qilingan va e‘lon qilingan.
5. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

